



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, may.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov vich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSİYANING O'RNI	18
O'rinov Akmaljon Ahmadjonovich Siddiqov Javlonbek Sodiqjon o'g'li	
XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI	22
Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna	
ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOY TENGLIKKA TA'SIRI.....	27
Babajanova Dilfuza Abdurasulovna	
HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)	32
Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna	
TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEXANIZMLARI.....	41
Barotov Umidjon Mahmud o'g'li	
BOSHQARISH SIFATI MOHIYATI VA UNI OSHIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	48
Shoyev Davronbek Axmadjonovich Abdullayeva Gulsanam	
ENGLISH LOANWORDS IN RUSSIAN AND UZBEK: TERMINOLOGICAL ADAPTATION WITHIN A COMPARATIVE LINGUISTICS FRAMEWORK	53
Kambarova Liliya Ruslanovna	
РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНВЕСТИЦИЙ	56
Алибекова Саодат Лапасовна	
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN SANOAT KORXONALARIDA MARKETING XIZMATINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	61
Usmonova Dilfuza Ixomovna	
O'ZBEKISTON INDIVIDUAL SPORTCHILARINI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVIGA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI.....	66
Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li	
KORXONA IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ERP TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH	72
Xaydarova Kamola Axinjanovna Berdiqulov Suhrob Berdiqulov o'g'li	
KORPORATIV BIRLASHISHLAR VA QO'SHIB OLISHLAR: NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	78
Latipova Shaxnoza Maxmudovna Xolmurodova Sevara Asqarovna	
DAVLAT BUDJETI KAPITAL XARAJATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	84
Guzal Navruzova	
KORXONALARNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA INVESTITSIYA VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI	88
Mamayeva Diyora Kurbanbayevna	
MARKAZIY VA JANUBIY O'ZBEKISTON MINTAQALARI SANOATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KO'RSATGICHLARI HOLATI	94
Uralov Eliboy Omonovich	



MARKAZIY VA JANUBIY O‘ZBEKISTON MINTAQALARI SANOATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KO‘RSATGICHLARI HOLATI

Uralov Eliboy Omonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Iqtisodiyot fakulteti “Mintaqaviy iqtisodiyot” kafedrası professori, PhD.

(o‘rindosh TAFU Tarmoqlar iqtisodiyoti va buxgalteriya kafedrası professori, PhD.)

E-mail: yeliboy.uralov84@gmail.com

ORCID: 0009-0004-3183-2894

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning markaziy va janubiy O‘zbekiston mintaqalarida ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida kichik biznesning bandlikni oshirish, aholi daromadlarini ko‘paytirish, hududiy rivojlanishni rag‘batlantirish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash hamda innovatsion faoliyatni rivojlantirishga ta’siri o‘rganildi. Maqolada adabiyotlar sharhi, hududiy tahlil va statistik indikatorlar asosida natijalar chiqarildi. Tadqiqot natijalari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy rivojlanishdagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi hamda davlat va nodavlat tashkilotlar uchun amaliy tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, ijtimoiy ahamiyat, bandlik, hududiy rivojlanish, innovatsion faoliyat, ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация. В данной статье анализируется социально-экономическое значение малого бизнеса и частного предпринимательства в центральных и южных регионах Узбекистана. В рамках исследования изучено влияние малого бизнеса на повышение занятости, рост доходов населения, стимулирование регионального развития, укрепление социальной стабильности и развитие инновационной деятельности. В статье представлены результаты на основе обзора литературы, регионального анализа и статистических показателей. Полученные результаты подтверждают, что малый бизнес и частное предпринимательство имеют стратегическое значение не только для экономического, но и для социального развития, а также формируют практические рекомендации для государственных и негосударственных организаций.

Ключевые слова: малый бизнес, частное предпринимательство, социально-экономическое значение, занятость, региональное развитие, инновационная деятельность, социальная стабильность, экономическая эффективность.

Annotation. This article analyzes the socio-economic significance of small business and private entrepreneurship in the central and southern regions of Uzbekistan. The study examines the impact of small businesses on employment growth, income increase, regional development, strengthening social stability, and the development of innovative activities. The article presents findings based on a literature review, regional analysis, and statistical indicators. The results confirm that small business and private entrepreneurship play a strategic role not only in economic but also in social development, providing practical recommendations for both governmental and non-governmental organizations.

Keywords: small business, private entrepreneurship, socio-economic significance, employment, regional development, innovation activity, social stability, economic efficiency.

KIRISH

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik zamonaviy bozor iqtisodiyotining eng muhim segmentlaridan biri bo‘lib, u iqtisodiy o‘shirish, bandlikni ta‘minlash va hududlarni rivojlantirishda ijtimoiy barqarorlikning muhim omili hisoblanadi. Bugungi global va milliy iqtisodiy sharoitda kichik tadbirkorlik faoliyati nafaqat daromad manbai, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini mustahkamlashda strategik rol o‘ynamoqda. Kichik biznes subyektlari raqobatbardosh muhitni shakllantiradi, innovatsion g‘oyalarni joriy qiladi va iqtisodiyotning



o'zgaruvchan talablariga moslashish bo'yicha tizimli imkoniyat yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining "Yangi O'zbekiston" iqtisodiy siyosati doirasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. So'nggi yillarda bu yo'nalishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar, davlat farmonlari va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari faol joriy etilmoqda, bu esa kichik tadbirkorlikni iqtisodiy va ijtimoiy tizimning ajralmas qismiga aylantirmoqda. Masalan, so'nggi ilmiy maqolalarda Markaziy va Janubiy O'zbekiston mintaqalarida kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, davlat siyosati, bandlik va sanoatdagi ulushi tahlil qilinmoqda. Bu mavzu milliy tadqiqotlar kontekstida ham dolzarblik kasb etganligini ko'rsatadi.

Ilmiy adabiyotlarda kichik biznes va tadbirkorlikning nazariy va amaliy jihatlarini keng yoritilgan bo'lsa-da, ijtimoiy ahamiyat, ijtimoiy tadbirkorlik bilan bog'liq samaradorlik, innovatsion jarayonlar va jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik kabi yo'nalishlar hali ham chuqur izlanishni talab qiladi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tadbirkorlik jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal etishda samarali vosita sifatida o'sib bormoqda, ayniqsa gender, bandlik va iqtisodiy rivojlanish masalalari bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli, mazkur maqola kichik biznesning ijtimoiy aspektlariga alohida e'tibor qaratib, mavzuni ilmiy jihatdan yangi yondashuv bilan tahlil etadi.

Bugungi iqtisodiy sharoitda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning samaradorligini oshirish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va bandlikni yanada oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar talab etiladi. Shu munosabat bilan maqola kichik biznes subyektlarining ijtimoiy ahamiyatini aniqlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini tahlil qilish va mavjud bo'lgan ilmiy bo'shliqlarni bartaraf etishga qaratilgan. Ushbu yondashuv ilmiy va amaliy ehtiyojni qondiradi hamda sohadagi siyosatlarni takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy ahamiyati bo'yicha ko'plab olimlar izlanish olib borishgan. Xususan, rus iqtisodchi Тихомирова, О. Г. tomonidan yozilgan «Глобализация и малый бизнес: новые возможности для малых и средних предприятий» nomli maqolada tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishida ijtimoiy kapitalning o'rni chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotda hududiy ijtimoiy aloqalar, ishonch darajasi va mahalliy tarmoqlar kichik biznesni rivojlantirishda muhim omil ekani empirik ma'lumotlar asosida asoslab berilgan. Muallifning ta'kidlashicha, ijtimoiy kapital tadbirkorlik faoliyatining paydo bo'lishi va kengayishida muhim resurs bo'lib, ayniqsa iqtisodiy inqiroz davrida kichik biznesning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot kichik biznesning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatib berishi bilan ushbu mavzuni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, maqolada rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida kichik biznesning ijtimoiy ta'siri yetarli darajada tahlil qilinmaganligi ilmiy bo'shliq sifatida qayd etiladi [1].

O'zbekistonlik olimlar M. R. Boltaev, M. S. Qosimov, Sh. J. Ergashxodjaeva, B. K. G'oyibnazarov, A. N. Samadov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan yozilgan "Kichik biznes va tadbirkorlik" nomli o'quv qo'llanmada ijtimoiy tadbirkorlikning jamiyat taraqqiyotidagi roli va uning iqtisodiy hamda ijtimoiy natijalarga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda tadbirkorlik faqat daromad olish vositasi emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal etishga xizmat qiluvchi muhim institut sifatida ko'rib chiqiladi. Mualliflar ijtimoiy tadbirkorlik orqali bandlikni oshirish, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash mumkinligini asoslab beradilar. Ushbu manba kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jamiyatdagi ijtimoiy funksiyalarini tushuntirib berishi bilan muhim ahamiyatga ega. Biroq tadqiqotda kichik biznes faoliyatining hududiy iqtisodiyot rivojiga ta'siri aniq statistik misollar bilan yetarlicha yoritilmagan [2].

Muftaydinov Q. tomonidan yozilgan "Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari" nomli doktorlik dissertatsiyasida tadbirkorlik faoliyati barqaror rivojlanish va ijtimoiy muammolarni hal etishda muhim vosita sifatida ko'rib chiqiladi. Muallif tadbirkorlik faoliyati orqali ishsizlik, kambag'allik va ijtimoiy tengsizlik kabi muammolarni kamaytirish mumkinligini nazariy jihatdan asoslaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kichik biznes ijtimoiy muammolarni hal etishda davlat siyosatini qo'llab-quvvatlovchi muhim iqtisodiy institut sifatida faoliyat yuritadi. Mazkur tadqiqot kichik biznesning ijtimoiy funksiyalarini kengroq yoritib berishi bilan muhim ilmiy ahamiyatga ega. Shu bilan birga, dissertatsiyada tadbirkorlik faoliyatining real iqtisodiy samaradorligini baholash mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi ilmiy bo'shliq sifatida qayd etiladi [3].

Ibragimov I. U. tomonidan yozilgan "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini boshqarish mexanizmini takomillashtirish (Namangan viloyati misolida)" nomli nomzodlik dissertatsiyasida kichik tadbirkorlikning jamiyatdagi ijtimoiy ta'siri hududiy misolda o'rganilgan. Tadqiqotda kichik ijtimoiy korxonalar yangi ish o'rinlarini yaratish, ijtimoiy muammolarni kamaytirish hamda aholining iqtisodiy faolligini oshirishda muhim rol o'ynashi aniqlangan. Muallif tadbirkorlik faoliyati orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash mumkinligini empirik tahlillar asosida ko'rsatib beradi. Mazkur tadqiqot kichik biznesning ijtimoiy ahamiyatini gender va bandlik



nuqtayi nazaridan yoritib berishi bilan muhim hisoblanadi. Biroq mazkur ishda kichik biznesning makroiqtisodiy rivojlanishga ta'siri yetarlicha tahlil qilinmagan [4].

O'zbekistonlik iqtisodchi olim S. S. G'ulomov tomonidan yozilgan "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asoslari" nomli ilmiy asarda kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi o'rni va ijtimoiy ahamiyati keng yoritilgan. Muallifning fikricha, kichik biznes iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, aholi bandligini oshirish hamda bozor iqtisodiyoti mexanizmlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotda kichik biznesning rivojlanishi mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, aholining daromadlarini oshirish hamda o'rta sinfni shakllantirishga xizmat qilishi ta'kidlangan. Ushbu ilmiy ish kichik biznesni rivojlantirishning nazariy va institutsional asoslarini ochib berishi bilan muhim manba hisoblanadi. Biroq tadqiqotda kichik biznesning hududiy rivojlanishdagi o'ziga xos xususiyatlari yetarli darajada o'rganilmagan [5].

O'zbekistonlik iqtisodchi olim I. A. Bakieva tomonidan yozilgan "O'zbekiston yengil sanoatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish" nomli nomzodlik dissertatsiyasida kichik biznesning mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi strategik ahamiyati tahlil qilingan. Muallif kichik biznesni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlari yaratish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va aholining turmush darajasini oshirish mumkinligini asoslab beradi. Tadqiqotda kichik biznesning iqtisodiy tizimdagi roli bilan bir qatorda uning ijtimoiy funksiyalari ham yoritilgan. Mazkur tadqiqot kichik biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini tahlil qilishi bilan muhim ilmiy ahamiyatga ega. Biroq dissertatsiyada innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kichik biznesning ijtimoiy samaradorligini oshirish masalasi yetarli darajada tadqiq etilmagan [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda hududiy shahar va tumanlar sanoat ko'rsatkichlari asosiy metodologik yondashuv sifatida qo'llanildi, bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati turli ko'rsatkichlar orqali tizimli tarzda o'rganildi. Tadqiqot davomida hududiy va sektorlar bo'yicha empirik ma'lumotlar tahlil qilinib, aholi bandligi, daromad darajasi, hududiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlik kabi asosiy indikatorlar asosida natijalar chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik Markaziy va janubiy O'zbekiston mintaqalarida iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu sektor iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faoliyat yuritib, yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli kichik biznesning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini tahlil qilish, uning jamiyat rivojlanishiga ta'sirini aniqlash hamda ushbu yo'nalishdagi mavjud imkoniyatlarni baholash muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot doirasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy ahamiyati asosiy ko'rsatkichlar orqali tahlil qilindi. Xususan, tadbirkorlik faoliyatining bandlikni oshirish, aholi daromadlarini ko'paytirish, hududiy rivojlanishni rag'batlantirish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash hamda innovatsion faoliyatni rivojlantirishga ta'siri analitik yondashuv asosida baholandi. Ushbu tahlil natijalari kichik biznesning jamiyat rivojlanishidagi o'rnini aniqlashga hamda uning ijtimoiy samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va xulosalarni shakllantirish imkonini beradi.

1-jadval

Markaziy va janubiy O'zbekiston mintaqalari shahar va tumanlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi hajm, mlrd.so'm (2025- yil)¹

№	Shahar va tumanlar	2025-yil	Foiz hisobda	№	Shahar va tumanlar	2025-yil	Foiz hisobda
1	Buxoro sh.	464,5	1,6	36	Nurobod	403,9	1,4
2	Kattaqo'rg'on sh	629,5	2,1	37	Nurota t.	89,4	0,3
3	Kogon sh.	160,0	0,5	38	Olot	107,3	0,4
4	Navoiy sh.	480,9	1,6	39	Oltinsoy	299,3	1,0
5	Qarshi sh.	363,8	1,2	40	Oqdaryo	835,7	2,8
6	Samarqand sh	3 199,4	10,9	41	Pastdarg'om	838,5	2,9
7	Termiz sh	828,6	2,8	42	Paxtachi	352,7	1,2

1 Muallif ishlanmasi



8	Zarafshon sh.	165,3	0,5	43	Payariq	567,5	1,9
9	G'ozg'on sh.	31,9	0,1	44	Peshko'	140,9	0,5
10	Shahrisabz sh.	135,3	0,5	45	Qamashi	125,0	0,4
11	Angor	314,3	1,1	46	Qarshi	139,1	0,5
12	Bandixon	262,5	0,9	47	Qiziltepa t.	319,7	1,1
13	Boysun	171,1	0,6	48	Qorako'l	99,9	0,3
14	Bulung'ur	923,0	3,1	49	Qorovulbozor	132,9	0,4
15	Buxoro	94,9	0,3	50	Qiziriq	347,0	1,2
16	Dehqonobod	67,3	0,2	51	Qumqo'rg'on	253,1	0,8
17	Denov	537,9	1,8	52	Qo'shrabot	219,2	0,7
18	Ishtixon	353,8	1,2	53	Romitan	185,0	0,6
19	Jarqo'rg'on	250,4	0,8	54	Samarqand	1 606,2	5,5
20	Jomboy	1 631,9	5,6	55	Sariosiyo	249,7	0,8
21	Jondor	240,0	0,8	56	Termiz	379,4	1,3
22	Karmana t.	428,0	1,5	57	Tomdi t.	17,3	0,05
23	Kasbi	83,8	0,3	58	Toyloq	656,0	2,2
24	Kattaqo'rg'on t	608,1	2,1	59	Urgut	2 774,8	9,5
25	Kitob	152,4	0,5	60	Uzum	362,4	1,2
26	Konimex t.	52,7	0,2	61	Uchquduq t.	139,1	0,5
27	Koson	163,0	0,5	62	Vobkent	179,7	0,6
28	Kogon	380,3	1,3	63	Xatirchi t.	193,6	0,6
29	Ko'kdala	62,3	0,2	64	Yakkabog'	113,4	0,4
30	Mirishkor	270,8	0,9	65	G'ijduvon	317,1	1,1
31	Muborak	154,6	0,5	66	G'uzor	88,5	0,3
32	Muzrobot	687,7	2,3	67	Shahrisabz	98,3	0,3
33	Narpay	481,0	1,6	68	Sherobod	735,4	2,5
34	Navbahor t.	101,4	0,3	69	Shofirkon	187,3	0,6
35	Nishon	141,3	0,5	70	Sho'rchi	377,9	1,3
				71	Chiroqchi	226,8	0,7

Manba: Buxoro, Navoiy, Samarqand, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyati statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Berilgan jadval asosida Markaziy va janubiy O'zbekiston mintaqalarida kichik tadbirkorlikda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi tahlil qilindi. Jadvalda 70 dan ortiq shahar va tumanlar kesimida ishlab chiqarish hajmi keltirilgan bo'lib, ko'rsatkichlar juda notekis taqsimlangan. Ayrim hududlar juda yuqori ulushga ega bo'lsa, boshqalari ancha past darajada.

Eng yuqori ko'rsatkichga ega hududlar. Quyidagi hududlar sanoat ishlab chiqarishda yetakchi hisoblanadi: Samarqand sh. — 3 199,4 mlrd so'm, Urgut — 2 774,8 mlrd so'm, Jomboy — 1 631,9 mlrd so'm, Samarqand tumani — 1 606,2 mlrd so'm, Pastdarg'om — 838,5 mlrd so'm, Oqdaryo — 835,7 mlrd so'm, Termiz sh. — 828,6 mlrd so'm, Toyloq — 656,0 mlrd so'm, Kattaqo'rg'on sh. — 629,5 mlrd so'm.

Xulosa qilib aytganda, Samarqand viloyati hududlari — Samarqand shahri, Urgut, Jomboy, Pastdarg'om va Oqdaryo sanoatda mutlaq ustunlikka ega.

Eng past ko'rsatkichga ega hududlar. Quyidagi hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmi juda past: Tomdi tumani — 17,3 mlrd so'm, G'ozg'on shahri — 31,9 mlrd so'm, Konimex tumani — 52,7 mlrd so'm, Ko'kdala tumani — 62,3 mlrd so'm, Dehqonobod tumani — 67,3 mlrd so'm, Kasbi tumani — 83,8 mlrd so'm.



Bu hududlarda sanoat infratuzilmasi sust rivojlangan yoki iqtisodiyotda boshqa tarmoqlar ustun.

Hududlar kesimida tahlil shuni ko'rsatadiki, Samarqand viloyati eng kuchli sanoatlashgan hudud bo'lib, bir nechta tumanlarda ishlab chiqarish hajmi 500 mlrd so'mdan yuqori. Shu bilan birga, ichki tafovutlar ham mavjud (masalan, Nurota — 89,4 mlrd so'm).

Surxondaryo viloyatida Termiz shahri (828,6 mlrd so'm) va Sherobod (735,4 mlrd so'm) yuqori ko'rsatkichlarga ega, biroq ayrim tumanlar o'rtacha va past darajada.

Qashqadaryo viloyatida Jomboy (1 631,9 mlrd so'm) juda yuqori natija ko'rsatgan bo'lsa, boshqa tumanlar o'rtacha darajada, Kasbi va Nishon esa past ko'rsatkichlarga ega.

Buxoro viloyatida sanoat ishlab chiqarish o'rtacha darajada bo'lib, G'ijduvon, Qorako'l va Vobkent kabi hududlar barqaror rivojlanish ko'rsatmoqda.

Navoiy viloyatida esa hududlar o'rtasida katta tafovut kuzatiladi: Navoiy shahri (480,9 mlrd so'm) yuqori, Tomdi tumani (17,3 mlrd so'm) esa juda past darajada.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik Markaziy va janubiy O'zbekiston mintaqalari iqtisodiyotining eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy institutlaridan biri ekanligi tadqiqot davomida aniqlandi. Ushbu sektor aholi bandligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadlarini ko'paytirishda muhim rol o'ynaydi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, kichik biznes nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, hududiy rivojlanishga qo'shgan hisssasi ham sezilarli bo'lib, mahalliy resurslardan samarali foydalanish orqali hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytiradi.

Tahlil natijalariga ko'ra, kichik biznes subyektlari innovatsion faoliyatni rivojlantirish va raqobatbardosh mahsulotlar yaratish bo'yicha ham muhim rol o'ynaydi. Kichik korxonalar boshqaruvning moslashuvchanligi va tezkor qaror qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lgani sababli yangi texnologiyalarni tez joriy etadi va bozor talablariga moslashadi. Bu esa nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki o'rta sinfni shakllantirish va raqobatbardosh iqtisodiy muhitni yaratishga ham xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot davomida aniqlanishicha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati orqali ijtimoiy tadbirkorlikning rivojlanishiga ham imkoniyatlar yaratiladi. Ayollar tadbirkorligi, ijtimoiy korxonalar va bandlikni oshirishga qaratilgan loyihalar kichik biznes subyektlarining ijtimoiy ahamiyatini yanada oshiradi. Shu bilan birga, maqolada aniqlangan ilmiy bo'shliqlar, masalan, innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish orqali ijtimoiy samaradorlikni oshirish masalalari kelajakdagi ilmiy tadqiqotlar uchun muhim yo'nalish sifatida qaraladi.

Umuman olganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati nafaqat empirik tahlillar, balki amaliy tajriba va davlat siyosati orqali ham tasdiqlanadi. Ushbu tadqiqot natijalari, shuningdek, davlat organlari, moliya institutlari va nodavlat tashkilotlar uchun kichik biznesni rivojlantirish siyosatini shakllantirishda asosiy yo'nalishlarni belgilashga yordam beradi. Shu sababli kichik biznesni qo'llab-quvvatlash mamlakat iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy farovonligini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish. Ya'ni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish uchun grantlar, subsidiyalar va imtiyozli kreditlar tizimi kengaytirilishi lozim. Bu tadbirkorlarni innovatsion loyihalar yaratishga va yangi ish o'rinlarini tashkil etishga rag'batlantiradi, natijada hududiy iqtisodiy rivojlanish tezlashadi.

2. Ta'lim va trening dasturlarini rivojlantirish. Tadbirkorlik va menejment bo'yicha maxsus kurslar, treninglar va master-klasslar tashkil etish orqali yoshlar va yangi tadbirkorlarning ko'nikmalarini oshirish zarur. Bu tadbirkorlikning barqarorligini kuchaytiradi va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish imkonini beradi.

3. Ijtimoiy tadbirkorlikni rag'batlantirish. Ayollar va kam ta'minlangan qatlamlar tomonidan tashkil etiladigan ijtimoiy korxonalarni qo'llab-quvvatlash zarur. Shu yo'l bilan nafaqat bandlik va daromad oshadi, balki jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi.

4. Hududiy va innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish. Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalari va hududiy iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlash lozim. Maxsus texnoparklar, inkubatorlar va startap markazlari yaratish orqali tadbirkorlik faoliyati raqobatbardosh va barqaror bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Тихомирова, О. Г. Глобализация и малый бизнес: новые возможности для малых и средних предприятий / О. Г. Тихомирова // Менеджмент в России и за рубежом. — 2019. — № 3. — С. 79.



2. Болтабаев, М. Р., Қосимова, М. С., Эргашходжаева, Ш. Ж., Ғойибназаров, Б. К., Самадов, А. Н., Ходжаев, Р. Кичик бизнес ва тадбиркорлик: ўқув қўлланма. — Т.: Иқтисодиёт, 2010. — 275 б.

3. Муфтайдинов, Қ. Иқтисодиётни эркинлаштириш шароитида тадбиркорликни ривожлантириш муаммолари: дис. ... иқт. фан. докт. — Т.: 2004. — 18 б.

4. Ибрагимов, И. У. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятини бошқариш механизмини такомиллаштириш (Наманган вилояти мисолида): дис. ... иқт. фан. номз. — Т., 2012.

5. Ғуломов, С. С. Тадбиркорлик ва кичик бизнес. — Т., 2008. — 365 б.

6. Бакиева, И. А. Ўзбекистон енгил саноатида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантириш: дис. ... иқт. фан. номз. — Т., 2012.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>